
Buvayda tumanidagi 53 ta umumta'lim maktablarida bugun 4815 nafar birinchi sinf o'quvchilari ilk darslarini boshladi

Buvayda tumanidagi 53 ta umumta'lim maktablarida "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekistonda uchun" shiori ostida "Bilimlar kuni" tadbirlari o'tkazildi.

Barcha maktablarda o'tkazilgan tabirlarga tuman hokimligi vakillari birlashtirilib, o'quvchi va ustozlarni quvonchli kuni bilan tabrikladilar. Jumladan 39-sonli umumta'lim maktabida o'tkazilgan birinchi qo'ng'iroq tadbirida Buvayda tumani hokimi Behzodjon Ibragimov ishtirok etdi. Tuman rahbari tadbirda so'zga chiqib, o'quvchilar, maktab jamoasini birinchi qo'ng'iroq bilan tabriklab, kelajagimiz vorislari bo'lguvchi ilmi toliblarga el-yurtimiz koriga yaraydigan yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishlarini tiladi. Bugungi tadbirda birinchi sinf o'quvchilarining har biriga Prezident sovg'alari topshirildi.

2023-09-05 13:47:34